

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

LOTIN YOZUVIDAGI MATNLARNING GRAFOLOGIK EKSPERTIZASI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY MOYILLIGINI ANIQLASH IMKONIYATLARI

Yo'ldosheva Yulduz Abdikarim qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: Yulduzyuldoshiva39@gmail.com <https://orcid.org/0009-0004-9070-4091>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada lotin yozuvidagi matnlarning grafologik ekspertizasi asosida talabalarning kasbiy moyilligi, ichki qobiliyatlari va individual yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida talabalar yozuv namunalari grafologik mezonlar asosida tahlil qilinib, natijalar respondentlarning kasbiy qiziqishlari, orzu qilgan kasblari va individual suhbat materiallari bilan qiyoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yozuvda aks etgan qobiliyatlar bilan talabalarning real kasbiy intilishlari o'rtasida yuqori darajadagi uyg'unlik kuzatilgan. Aniqlik darajasining 98,6% ni tashkil etgani grafologik ekspertizaning kasbiy yo'naltirishdagi amaliy va diagnostik imkoniyatlari yuqori ekanini ko'rsatadi. Maqolada grafologik tahlilning psixologik, pedagogik va amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: grafologiya, grafologik ekspertiza, lotin yozuvi, kasbiy moyillik, kasb tanlash, qobiliyat, psixodiagnostika, talabalar.

ВОЗМОЖНОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ГРАФОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ТЕКСТОВ, ВЫПОЛНЕННЫХ ЛАТИНСКОЙ ГРАФИКОЙ

Йўлдошева Юлдуз Абдикарим кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются возможности определения профессиональной направленности, внутренних способностей и индивидуальных особенностей студентов на основе графологической экспертизы текстов, написанных латинской графикой. В ходе исследования образцы почерка студентов анализировались по графологическим критериям, а полученные результаты сопоставлялись с профессиональными интересами, желаемыми профессиями и материалами индивидуальных бесед респондентов. По результатам исследования выявлена высокая степень соответствия между способностями, отраженными в почерке, и реальными профессиональными устремлениями студентов. Показатель точности 98,6% свидетельствует о высоком практическом и диагностическом потенциале графологической экспертизы в профессиональной ориентации. В статье раскрываются психологические, педагогические и прикладные аспекты графологического анализа.

Ключевые слова: графология, графологическая экспертиза, латинская графика, профессиональная направленность, выбор профессии, способности, психодиagnostika, студенты.

POSSIBILITIES FOR IDENTIFYING STUDENTS' PROFESSIONAL APTITUDES BASED ON THE GRAPHOLOGICAL EXAMINATION OF TEXTS WRITTEN IN THE LATIN SCRIPT

Yo'ldosheva Yulduz Abdikarim qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Researcher.

Abstract.

This article explores the possibilities of identifying students' professional orientation, internal abilities, and individual tendencies through graphological examination of texts written in the Latin script. During the research process, students' handwriting samples were analyzed according to graphological criteria, and the results were compared with the respondents' professional interests, desired careers, and

individual interview materials. The findings revealed a high degree of correspondence between the abilities reflected in handwriting and the students' actual professional aspirations. The accuracy rate of 98.6% indicates the strong practical and diagnostic potential of graphological examination in vocational guidance. The article highlights the psychological, pedagogical, and applied aspects of graphological analysis.

Keywords: graphology, graphological examination, Latin script, professional orientation, career choice, ability, psychodiagnostics, students.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirish, ularning ichki salohiyatini erta aniqlash va individual qobiliyatlariga mos rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [8; 32–b.]. Kasb tanlashda shaxsning qiziqishi, psixologik moyilligi, xarakter xususiyatlari va ichki qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan metodlar orasida grafologik ekspertiza o'zining maxsus tahliliy imkoniyatlari bilan e'tiborni tortadi. Grafologiya yozuv orqali shaxsning psixologik holati, xakteri, hissiy barqarorligi, tafakkur uslubi va ayrim qobiliyat yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida qaraladi [9; 92–b.]. Ayniqsa, lotin yozuviga asoslangan matnlar grafik jihatdan aniq, ritmik va individual belgilarni ravshan ifoda etishi sababli grafologik ekspertiza uchun boy empirik material beradi.

Olimlarning fikricha, kasbiy yo'naltirish jarayonida ko'pincha talabalar o'z ichki qobiliyatlarini to'liq anglab yetmasligi yoki tashqi omillar ta'sirida o'z istaklarini aniq ifoda eta olmasligi kuzatiladi. Bunday sharoitda yozuvning psixomotor va psixografik ko'rsatkichlari shaxsning ichki imkoniyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Lotin yozuviga o'tish sharoitida aynan shu grafik tizimda yaratilgan matnlarni grafologik jihatdan o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki lotin yozuvi harf shakllari, qiyalik, ritm, interval, bosim va satr dinamikasini tahlil qilish nuqtayi nazaridan o'ziga xos strukturaviy imkoniyatlarga ega. Shu bois lotin yozuvidagi matnlarning grafologik ekspertizasi orqali talabalar shaxsiy va kasbiy salohiyatini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqotda kuzatish, grafologik tahlil, qiyosiy tahlil, individual suhbat va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Empirik material sifatida talabalar tomonidan lotin yozuvida yozilgan qo'lyozma matn namunalari olindi. Yozuvlar qiyalik, bosim kuchi, harf hajmi, satr yo'nalishi, so'zlar orasidagi masofa, harflar orasidagi masofa, harflarning bog'lanishi, yozuv tezligi, sahifadagi joylashuvi va imzo xususiyatlari kabi asosiy 10 ta parametrlar orqali tahlil qilindi. Mazkur ko'rsatkichlar asosida talabalar yozuvida estetik sezgi, muloqotchanlik, liderlik, ichki intizom, analitik fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi qobiliyat belgilarining ifodalanish darajasi tahlil qilindi. Keyingi bosqichda respondentlar bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularning qiziqish doirasi, orzu qilgan kasbi, moyilligi va ichki kasbiy intilishlari aniqlashtirildi. So'ngra grafologik xulosalar suhbat natijalari bilan qiyoslandi va moslik darajasi hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalari grafologik ekspertiza asosida aniqlangan qobiliyat yo'nalishlari bilan talabalar tomonidan suhbat jarayonida bildirilgan kasbiy orzular o'rtasida juda yuqori darajadagi moslik mavjudligini ko'rsatdi. Tahlillar yakuniga ko'ra, moslik darajasi 97,3 % ni tashkil etdi.

Natijalar quyidagi tendensiyalarni namoyon etdi:

- a) tartibli, bir maromdagi va muvozanatli bosimli yozuv egalari ko'proq tahliliy, texnik, huquqiy va pedagogik yo'nalishlarga moyillik bildirgan;
- b) erkin, keng va ritmik yozuv egalari san'at, filologiya, dizayn va ijodiy faoliyat bilan bog'liq kasblarni afzal ko'rgan;
- c) kuchli bosimga ega, dadil va tezkor yozuv egalari boshqaruv, rahbarlik, jurnalistika va ijtimoiy faollikni talab qiluvchi kasblarga intilgan;
- d) mayda, aniq va izchil yozuv egalari ilmiy izlanish, tibbiyot, hisob-kitob va tafsilotlarga asoslangan faoliyat turlariga yaqinligini namoyon etgan.

Mazkur natijalar yozuvning tashqi grafik tuzilishi bilan shaxsning ichki kasbiy yo'nalishi o'rtasida muayyan uyg'unlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim manbalarda ham grafologik tahlil shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda kasbiy yo'nalishini aniqlashda samarali vosita sifatida baholanadi [7; 10–16-b.].

Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar grafologik ekspertizani kasbiy yo'naltirishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Yozuv insonning nafaqat texnik harakati, balki uning ichki ruhiy ritmi, emotsional muvozanati, irodaviy sifati va tafakkur tarzining grafik ifodasi sifatida talqin qilinadi [6; 45–53-b.]. Shu sababli yozuvda aks etgan belgilar shaxsning qaysi faoliyat turiga ko'proq moyil ekanini ko'rsatib berishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlangan 97,3 % lik moslik darajasi grafologik tahlilning tasodifiy emas, balki ma'lum psixologik qonuniyatlarga asoslangan metod ekanini ko'rsatadi. Bu natija grafologiyani yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etish, metodik asoslarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish zarurligini anglatadi. Shuningdek, lotin yozuvining grafologik ekspertiza uchun qulay obyekt ekanini ham alohida qayd etish lozim. Chunki lotin yozuvida harf shakllari, yuqori va pastki elementlar, satr ritmi, bog'lanish usullari va individual grafemik og'ishlar ancha ravshan ifodalanadi. Bu esa shaxsiy farqlarni aniqroq kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari grafologiyaning talabaning ichki qobiliyat va imkoniyatiga mos kasbni aniqlashda, yashirin salohiyati va ichki potentsialini tushunishga yordam beruvchi psixologik maslahatlarda, ta'lim jarayonini individuallashtirishni taqozo qiladigan pedagogik faoliyatda, xarakter, intizom va faoliyat uslubini baholash orqali talaba shaxsini aniqlashda hamda individual resurslarga mos tavsiyalar ishlab chiqadigan rivojlantiruvchi dasturlar tuzishda muhim ekanligini isbotladi. Ayrim ilmiy manbalarda ham grafologik tahlil proforientatsiya va kadrlar bilan ishlashda foydali vosita sifatida ko'rsatiladi [1; 41–47-b.].

Neyropsixologik tadqiqotlar insonning emotsional holati va ruhiy kechinmalari yozuv parametrlariga ta'sir ko'rsatishini isbotladi [12; 384-b.]. Masalan, stress holatlarida satrlar notekislashadi, bosim kuchi o'zgaradi va yozuv ritmi buziladi. Depressiv holatlarda esa harflar kichrayishi va yozuv energiyasining pasayishi kuzatiladi. Agar vaqtinchalik psixologik holatlar yozuvda aks etsa, shaxsning nisbatan barqaror xarakter xususiyatlari ham ma'lum darajada yozuvda namoyon bo'lishi mumkinligi haqidagi fikr mutlaqo asossiz emas.

Grafologiyani tanqid qiluvchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq ushbu tadqiqotlarning metodologiyasini chuqur tahlil qilish ayrim muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Birinchidan, ko'plab eksperimentlarda professional grafologlar emas, balki qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan ekspertlar jalb qilingan. Ikkinchidan, tadqiqotlarda foydalanilgan yozuv namunalari ko'pincha standartlashtirilmagan. Yozuv hajmi, matn mazmuni va yozish sharoitlari turlicha bo'lgan. Uchinchidan, ko'plab tadqiqotlar grafologik xulosalarni qisqa muddatli testlar bilan solishtirgan. Vaholanki, xarakter murakkab va ko'p qirrali konstrukt hisoblanadi. To'rtinchidan, yozuvga madaniy va ta'limiy omillarning ta'siri yetarlicha nazorat qilinmagan. Natijada grafologiyaga oid salbiy xulosalarning barchasini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Lotin yozuvidagi matnlarning grafologik ekspertizasi talabalar shaxsini, qobiliyat yo'nalishlarini va kasbiy moyilligini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy imkoniyatlarga ega. Yozuvda aks etgan grafik belgilar orqali shaxsning ichki potentsiali, ruhiy holati va muayyan faoliyat turiga yaqinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Grafologik tahlil suhbat natijalarini to'ldirishi, psixologik testlarni boyitishi, yashirin xulq-atvor tendensiyalarini aniqlashi hamda kasbiy moslikni kompleks baholashga yordam berishi mumkin [5; 93-b.]. Shu sababli grafologiyani zamonaviy diagnostika tizimidan butunlay chiqarib tashlash emas, balki uni boshqa metodlar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi grafologiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy planshetlar va raqamli ruchkalar yordamida yozish tezligi, bosim dinamikasi, mikroharakatlar, ritm, koordinatsion aniqlik darajasi kabi parametrlarni yuqori aniqlikda o'lchash mumkin. Sun'iy intellekt algoritmlari millionlab yozuv namunalari tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa klassik grafologiyada mavjud bo'lgan subyektivlik muammosini sezilarli darajada kamaytiradi. Kelajakda AI asosidagi yozuv tahlili shaxs diagnostikasining yangi yo'nalishiga aylanish ehtimoli mavjud.

Grafologiyani mutlaqo rad etish ham, uni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish ham ilmiy jihatdan to'g'ri yondashuv emas. Qo'l yozuvi inson asab tizimi faoliyatining mahsuli bo'lib, unda shaxsning ayrim psixologik va xarakterologik xususiyatlari aks etishi mumkin.

Tadqiqot natijasida yozuvda ifodalangan qobiliyatlar bilan talabalar kasbiy orzulari o'rtasida 97,3 % darajadagi moslik aniqlangani grafologik ekspertizaning yuqori diagnostik salohiyatini ko'rsatdi. Mazkur natija grafologik tahlilni kasbiy yo'naltirish, pedagogik kuzatuv va psixologik maslahat amaliyotida istiqbolli metod sifatida baholash imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tanlanma hajmini oshirish, yosh va ixtisos kesimidagi tahlillarni chuqurlashtirish hamda lotin yozuvi asosidagi grafologik mezonlarni tizimlashtirish muhim ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Klöppel B. *Handwriting Analysis: A Critical Review of Graphology*. – Berlin: Springer, 2005. – P. 41–47.
2. Beyerstein B. L. Graphology and Personality Assessment // *Skeptical Inquirer*. – 1992. – Vol. 16, № 3. – P. 311–321.
3. Dean G. A. The Bottom Line: Effect Size in Graphology // *Journal of Forensic Document Examination*. – 1992. – Vol. 5. – P. 1–15.
4. Falsina E., Molinari M., Meneghetti E., Chiarelli L. School and Vocational Guidance Through Graphology: A New Opportunity to Reverse from an Informative Approach to a Self-Assessment Approach // *Psychology and Behavioral Science International Journal*. – 2021. – Vol. 17, № 1. – Article ID 555953.
5. Furnham A., Chamorro-Premuzic T., Callahan I. Does Graphology Predict Personality and Intelligence? // *Individual Differences Research*. – 2003. – Vol. 1, № 2. – P. 78–94.
6. Pophal H. *Handwriting and Brain Activity (Handschrift und Gehirn)*. – Stuttgart: Thieme, 1970. – P. 45–53.
7. Holland J. L. *Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments*. – 3rd ed. – Odessa (FL): Psychological Assessment Resources, 1997. – P. 10–16.
8. *Maktab o'quvchilarida kasb tanlash motivatsiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar* // *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*. – 2022. – Vol. 10. – B. 31–34.
9. Ow S. H., Teh K. S., Yee L. Y. An Overview on the Use of Graphology as a Tool for Career Guidance // *CMU Journal*. – 2005. – Vol. 4, № 1. – P. 91–104.
10. Ow S. H., Teh K. S., Yee L. Y. An Overview on the Use of Graphology as a Tool for Career Guidance // *CMU Journal*. – 2005. – Vol. 4, № 1. – P. 92.
11. Кравченко В. И. *Графология: характер по почерку: учебно-методическое пособие*. – СПб.: ГУАП, 2006. – 92 с.
12. Лурья А. Р. *Основы нейropsychологии*. – М.: Академия, 2003. – 384 с.
13. Паутова Е. Б., Колыбенко А. В. *Графология и современность* // *Материалы студенческой научно-практической конференции*. – Минск, 2022. – С. 515–516.